

## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN H U K M**

2022 yil 4 mart kuni jinoyat ishlari bo‘yicha Chiroqchi tuman sudining binosida ochiq sud majlisi bo‘lib, raislik qiluvchi sudya O‘.Rasulov, sudya yordamchisi A.Baynazarovning kotibligida, taraflardan davlat ayblovchisi Chiroqchi tuman prokurorining katta yordamchisi A.Chulliyev, sudlanuvchilar B.U. va I.O.larning himoyachisi “Gefest Qalqoni Ostida” advokatlik byurosi advokati N.Elmurodovlarning ishtirokida, U. B. S. va O. I. D.larga oid 1-1814-2202/42-sonli jinoyat ishini ko‘rib chiqdi. Ish hujjatlariga ko‘ra:

U. B. S., 1983 yil 11 dekabr kuni Chiroqchi tumanida tug‘ilgan, o‘zbek, O‘zbekiston fuqarosi, ma‘lumoti o‘rta-maxsus, vaqtincha ishsiz, oilali, 2 nafar farzandi bor, muqaddam: jinoyat ishlari bo‘yicha Yakkabog‘ tumani sudining 2020 yil 4 avgustdagi hukmiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi JKning 109-moddasi 2-qismi bilan 1 yil axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan, jinoyat ishlari bo‘yicha Chiroqchi tumani sudining 2021 yil 12 fevraldagi ajrimi bilan JKning 73-moddasi 3-qismi “a” bandiga asosan o‘talmagan 6 oy 21 kun axloq tuzatish ishlari jazosidan shartli ravishda ozod qilingan, Chiroqchi tumani “Mustaqillik” MFY, Bolsuvar qishlog‘ida yashagan, gumonlanuvchi tariqasida 2021 yil 10 dekabr kuni ushlanib, 2021 yil 11 dekabr kuni “Qamoqqa olish” tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilgan, ayblov xulosasi nusxasini 2022 yil 26 yanvar kuni olgan.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 219-moddasi 2-qismi va 140-moddasi 3-qismi “a” bandi bilan ayblangan.

O. I. D., 1989 yil 24 may kuni Chiroqchi tumanida tug‘ilgan, o‘zbek, O‘zbekiston fuqarosi, malumoti oliy, muqaddam sudlanmagan, vaqtincha ishsiz, oilali, 1 nafar farzandi bor, Chiroqchi tumani “Mustaqillik” MFY, Bolsuvar qishlog‘ida yashagan, ish bo‘yicha “garov” ehtiyot chorasi qo‘llanilgan, ayblov xulosasi nusxasini 2021 yil 26 yanvar kuni olgan.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 219-moddasi 2-qismi va 140-moddasi 3-qismi “a” bandi bilan ayblangan.

Sud, sudlanuvchilar va jabrlanuvchilarning ko‘rgazmalarini tinglab, jinoyat ishi hujjatlarini o‘rganib chiqib, ishda mavjud dalillarga baho berib, taraflarning muzokara nutqlari va sudlanuvchining oxirgi so‘zini tinglab, muhokama qilib, quyidagilarni

### **ANIQLADI:**

Sudlanuvchi U. B. S. va O. I. D.lar quyidagi holatda qarshilik ko‘rsatish, ya‘ni xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga va fuqarolik burchini bajarayotgan shaxsga faol qarshilik ko‘rsatib, xizmat vazifasini hamda fuqarolik burchini bajarishdan voz kechishga majbur qilish jinoyatini sodir qilgan.



Jumladan, B.U., 2021 yilning 9 dekabr kuni soat 12:00 larda Byuroning Chiroqchi tumani bo'limi davlat ijrochilari M.Xurramov, Sh.Normurodov va M.Raximovlar birgalikda fuqarolik ishlari bo'yicha Chiroqchi tumani sudining 2020 yil 18 avgustdagi ijro varaqasiga asosan da'vogar "Qudratov Sobir Chorshanbiyevich" fermer xo'jaligi foydasiga javobgar U. B. S. tomonidan noqonuniy qurilgan imoratni majburiy tartibda buzdirish va yer maydonidan foydalanishga to'sqinlik qilmaslik majburiyatini yuklash haqidagi ijro hujjatiga asosan Chiroqchi tumani Mustaqillik MFY, Bolsuvar qishlog'ida joylashgan B.U. tomonidan noqonuniy qurilgan imoratni majburiy tartibda buzdirish uchun yer maydoniga kelishib, shu kuni soat 16:30 larda yer maydonida noqonuniy qurilgan imoratni Chiroqchi tumani yo'llardan foydalanish unitar korxonasidan ajratilgan maxsus texnika vositasi yordamida buzishmoqchi bo'lishganida javobgar U. B. fuqarolik burchini bajarayotgan ekskavatorchi Nurmatov Olimjonni haqorat qilib, qo'l oyoqlari bilan urib, tepib tan jarohati yetkazgan.

Shundan so'ng davlat ijrochisi M.Xurramov B.S.U.ing harakatlarini oldini olmoqchi bo'lganida B.U. va jiyani O. I. bilan birgalikda o'zining xizmat faoliyatini (burchini) bajarayotgan M.Xurramovni haqorat qilib, qo'l va oyoqlari bilan urib tepib, I.O. esa yerdan shifer bo'lgani olib, shifer bo'lagi bilan M.Xurramovni orqa sohasiga urib tan jarohati yetkazishib, unga faol qarshilik ko'rsatishib, uni xizmat vazifasini bajarishdan voz kechishga majbur qilishgan.

Sud tibbiy ekspertizaning 29.12.2021 yildagi 1856/793-YUIA sonli xulosasida O.Nurmatovning tanasida - yuzning chap chakka, chap quloq suprasi, chap umrov old sohalorida shilinmalari ko'rinishidagi jarohatlari mavjud bo'lib, ushbu jarohatlar shu sohalarga biror-bir o'tmas-qattiq jism ta'siri natijasida yuzaga kelganligi, og'irlik darajasi bo'yicha sog'liqni qisqa muddatga yomonlashuviga olib kelmagan yengil shikast guruhiga kiritilishi aniqlangan.

Sud tibbiy ekspertizaning 15.12.2021 yildagi 1812/571-Jur sonli xulosasida M.Xurramovning tanasida - bel umurtqa sohasida, o'ng ko'krak orqa yuzasi umurtqa oldi chizig'i bo'ylab 8-9 qovurg'alar sohasida shilinmalar, chap qo'l kaft ustida qontalash ko'rinishidagi jarohatlari mavjud bo'lib, ushbu jarohatlar shu sohalarga biror-bir o'tmas-qattiq jism ta'siri natijasida yuzaga kelganligi, og'irlik darajasi bo'yicha sog'liqni qisqa muddatga yomonlashuviga olib kelmagan yengil shikast guruhiga kiritilishi aniqlangan.

Sudlanuvchi U. B. va O. I.lar o'zlarining ushbu jinoiy harakati bilan O'zbekiston Respublikasi JKning 219-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilgan.

Sudlanuvchi B.U. sudda, aybiga iqrorlik bildirib, Chiroqchi tumani, Bolsuvar qishlog'ida joylashgan 40 sotix yer maydonidan 1993 yildan buyon oilasi bilan foydalanib kelganini, ushbu yerni otasi O'raz Saidmurod order orqali sotib olganini, ushbu yer maydoni o'rniga oldin eski tovuqxona bo'lganini, yer maydoniga 1993 yilda 3 xonali uy-joy qurganini, 2020 yilga qadar ushbu uyda oilasi bilan birga yashab kelganini, 2020 yilning avgust oyida "Qudratov Sobir Chorshanbiyevich" fermer xo'jaligi rahbari Qudratov Sobir u yashab o'tirgan uyni noqonuniy qurilgan, yerdan noqonuniy foydalanib kelmoqda deb fuqarolik sudiga ariza berganini, aslida u yashab turgan uyini 2019 yilda tuman hokimining qarori bilan egalik huquqini belgilab olganini, sud Qudratov Sobirning ishini ko'rib chiqib, 18.08.2020 yilda "noqonuniy qurilgan imoratni majburiy tartibda buzdirish va yer maydonidan foydalanishga to'sqinlik qilmaslik majburiyatini yuklash haqida ijro varaqasi chiqarganini, u birinchi instansiya sudida qatnashgani, keyin sudning qarorlari ustidan shikoyat berganini, lekin unga sud bo'ladigan kun haqida kech ma'lumot kelganini,



shundan so'ng ushbu ijro varaqasi ijrosini ta'minlash uchun MIB Chiroqchi tumani bo'limiga yuborilganini, davlat ijrochilari 2021 yilning fevral oyida uni rasmiy ogohlantirib, o'z ixtiyori bilan uy joyni buzib olishini bildirishganini, u shunda ularga sudning ushbu qarordan norozi ekanligini, qaror ustidan Oliy sudga shikoyat qilganligini bildirganini, shu bilan ijro harakatlari vaqtincha to'xtatilib turilganini, 2021 yilning 16 noyabr kuni MIB Chiroqchi tumani davlat ijrochilari yana uni oldiga kelishib, o'z ixtiyori bilan uy joyni buzib olishni aytishganini, shundan so'ng u uyni shiferlarini buzishni boshlaganini va ularga "o'zim buzib olaman" deb aytganidan so'ng ular qaytib ketishganini, bundan tashqari u ijrochilarga Nazorat tartibida sudning qaroridan shikoyat qilganligini aytib, ularga shikoyat arizasini nusxasini ko'rsatganini, shundan so'ng ijrochilar ketganidan so'ng u buzishni to'xtatganini, shundan so'ng 2021 yil 7 dekabr kuni pochta aloqa tarmog'idan MIB Chiroqchi tumani bo'limining aloqa xatini olganini, xatda 9 dekabr kuni takroriy ravishda majburiy ijro harakatlari o'tkazilish haqida yozilgan bo'lganini, 2021 yilning 9 dekabr kuni soat 11:00 larda amakisi Turayev Islom va Turayev Akromlar bilan, amakisi O. Dilmurodni o'g'li O. Ikromlar bilan borib, ijrochilar kelishini kutib turishganini, soat 12:00 larda 5-6 nafar ijrochilar kelishganini, shunda ular binoni buzib tashlashlarini aytishganidan keyin u o'zi shiferlarni olishni boshlaganini va to'liq shiferlarni olib, amakisi Turayev Akramning mashinasiga ortganini, shu jarayonida 3-4 nafar ijro xodimlari uyni eshik va romlarini o'zlari buzib olishganini, shu vaqtda ijrochi Ma'mur qo'lidan travma olganligini aytganini, shiferni olayotgan vaqtida ijro xodimlari uy buzilganligi haqida dalolatnoma tuzishganini, u dalolatnomaga qo'l qo'yganini, shunda ular "o'zingiz buzib oling" deb qaytib ketishganini, u esa shiferlarni tushirib bo'lib, uyga olib ketganini va shiferni uyga tushirib, Ikrom bilan uyida tushlik qilib, soat 16:00 larda yer maydoniga yog'ochlarni olish uchun qaytib borganida uyni bir ekskavator buzib yotganini, ijrochi Ma'mur shu yerda turgan bo'lganini, u ularga yog'ochlarni butun olishi kerakligini, o'zi buzib olishiga qaramasdan ekskavatorchi buzishni davom etganligi sababli ularni oldiga kelib, ekskavatorchini oldiga chiqib, uni haqorat qilib, oyog'i bilan bir necha marta tepganini, shundan so'ng ijrochi M.Xurramov uni pastga tushini aytganidan so'ng u pastga tushib, ijrochi bilan tortishib, qo'li bilan uni urganini, u ekskavatorchi va ijrochini urishini sababi qurilishni o'zi buzib olmoqchi bo'lganini, lekin ular uni kelishini kutmasdan o'zlari buzishni boshlashgan bo'lganini, shunda yog'ochlarga shikast yetadi deb o'ylab, jahlda ularni urib tan jarohati yetkazganini, o'sha kuni jiyani Ikrom ham unga yordam berish uchun kelganini, u traktorchi bilan bo'lib qolganligi sababli Ikrom kimni urganligini ko'rmaganini, hozirda o'z jinoyatining oqibatini to'liq tushunib yetganligini va qilmishidan qattiq pushaymonligini, kelgusida bunday jinoyatga qo'l urmasligini, jabrlanuvchilardan kechirim so'rashligini, oilaviy va moddiy ahvoli og'irligini bildirib, unga nisbatan yengillik berishni so'radi.

Sudlanuvchi I.O. sudda, aybiga iqrorlik bildirib, 2021 yil 9 dekabr kuni amakisi U. B. unga telefon qilib, "Bolsuvar qishlog'idagi yer maydoniga qurilgan uyni ustini ochib tashlaylik" deb aytganini, uni boshqa ishi bo'lmaganligi sababli amakisiga yordam berishini aytganini, soat 10:00 larda amakisi B. "Labo" mashinasini minib uni uyiga kelganini, keyin ikkalasi birga amakisi B.ning Bolsuvar qishlog'ida joylashgan yer maydoniga borishganini, ularni orqasidan amakisi Turayev Akram ham kelganini, ular u yerga borgan vaqtida soat taxminan 11:00lar bo'lib qolganini, shu orada 2 ta mashinada keyinchalik bilishicha 8-9 nafar ijrochilar ham kelishganini, ijrochilar amakisi B.ga yer maydoniga qurilgan uyni buzishga sudning qarori borligini, buzmasa



bo'lmasligini, uyni ixtiyoriy ravishda buzib olishni taklif qilib, dastlab shiferlarni olib tushirishini aytganini, shundan so'ng amakisi B. va Akramlar bilan birga uyni ustidagi shiferlarni buzib pastga olib tushirishganini, ijrochilarning o'zlari eshik va derazalarni buzishayotgan bo'lganini, tushlik vaqti bo'lib qolganligi uchun ijrochilar ularga tushlikdan so'ng kelib qolganini buzib olinglar" deb aytishganini, ular uy buzilganligi to'g'risida biror-bir hujjat rasmiylashtirgan yoki yo'qligini bilmasligini, ijrochilarni bir qismi ketishganini, bir mashinada 3-4 ta ijrochi qolganini, keyin ular hamma shiferlarni tushirib bo'lganidan keyin mashinaga ortishganini va tushlik qilib kelish uchun ketishganini, qolgan ijrochilar ham tushlik qilib kelishlarini aytib ketishganini, shundan so'ng qishloqqa kelganida u amakilariga uyga borishi kerakligini, mollarga qarashini aytib, uyini oldida tushib qolganini, amakilari B. va Akramlar ketishganini, ular shiferni qayerga olib borib tushirishganligini bilmasligini, uyiga ketganini, oradan taxminan bir soatlar o'tganidan so'ng amakisi kelib uni olib ketganini, ular yerga borgan vaqtida bir traktor uyni buzib yotganini, keyin amakisi B. ularni oldiga chopib borganini, u ham ularni orqasidan kelganida amakisi ijrochi bilan tortishib, surishib yotgan bo'lganini, keyin o'zi yerda turgan shifer bo'lagini sindirib olib, ijrochini qo'rqitmoqchi bo'lib unga o'qtalganini, lekin shifer ijrochiga tegmaganini, shu yerda ijrochi va amakisi B. bo'g'ishib, yoqalashib qolganini, traktor yer maydonidan chiqib ketganini, u ijrochi va B. amakisini ajratishga harakat qilganini, amakisi U. B. uni yer maydoniga qurilgan uyni buzish uchun olib ketganini, amakisi unga uyni buzishga sudning qarori chiqqanligini, ijrochilar buzishga kelishini aytgan bo'lganini, hozirda o'z jinoyatining oqibatini to'liq tushunib yetganligini va qilmishidan qattiq pushaymonligini, kelgusida bunday jinoyatga qo'l urmasligini, jabrlanuvchidan kechirim so'rashligini, oilaviy va moddiy ahvoli og'irligini bildirib, unga nisbatan yengillik berishni so'radi.

Jabrlanuvchi M.Xurramov sudda, Majburiy ijro byurosi Chiroqchi tuman bo'limi davlat ijrochisi lavozimida 2021 yil may oyidan ishlab kelayotganini, bo'lim ish yurituvida fuqarolik ishlari bo'yicha Chiroqchi tuman sudining 18.08.2020 yildagi ijro varaqasiga asosan undiruvchi "Qudratov Sobir Chorshammiyevich" fermer xo'jaligiga qarzdor U. B. tomonidan egallangan 1,26 gektar yer maydonini qaytarish, undiruvchi "Qudratov Sobir Chorshammiyevich" fermer xo'jaligiga tegishli yer maydonida qarzdor U. B. tomonidan qurilgan 4x12 metr o'lchamdagi imoratni majburiy tartibda buzdirish hamda qarzdor U. B. zimmasiga undiruvchi "Qudratov Sobir Chorshammiyevich" fermer xo'jaligining yer maydonidan foydalanishga to'sqinlik qilmaslik majburiyatini yuklash to'g'risida ijro hujjati Byuroning Chiroqchi tumani bo'limi ish yurituviga 11.09.2020 yilda kelib tushganini va ijro ishi qo'zg'atilib taraflarga ma'lum qilinganini, mazkur ijro hujjati yuzasidan qarzdor B.U. ijro hujjati talablarini o'z vaqtida bajarishligi to'g'risida bir necha marta ogohlantirilgan bo'lishiga qaramasdan ijro hujjati talabini bajarmasdan kelganini, joriy yilning 09 dekabr kuni Byuroning Chiroqchi tuman bo'limi davlat ijrochilari majburiy ijro harakatlarini amalga oshirish uchun ijro hujjatida ko'rsatilgan manzilga ijro harakatlarini olib borish maqsadida kelishganini, majburiy ijro harakatlarini olib borish jarayonida qarzdor B.U. va uning yaqin qarindoshlari (o'zini ukasiman deb tanishtirgan) buzilishi belgilangan imoratning tom qismi (shifer)ni olishganini va qolgan qismini buzmasdan ketib qolishganini, majburiy ijro harakatlarini amalga oshirish uchun jalb qilingan maxsus texnika vositasi bilan bino devorlarini buza boshlaganida qarzdor B.U. va uning ukasi to'satdan paydo bo'lishib, ijro harakatlariga keskin qarshilik



ko'rsata boshlashganini, ular oldiniga ijrochilarga qo'pol munosabatda bo'lib, haqorat qilib, maxsus texnika vositasi haydovchisini oldiga ya'ni, texnika vositasining haydovchi o'tirgan joyi (kabena qismi) ga chiqib oyoqlari bilan uning bosh, yuz va tanasining to'g'ri kelgan joylariga tepa boshlaganini, shu orada ularni ajratmoqchi bo'lganida yoqasidan va kiyim boshlaridan tortqilab, unga nisbatan kuch ishlatganini, uning ukasi I.O. orqa tarafidan kelib yerda yotgan shifer bo'lagi va qo'liga ilashgan narsalar bilan ura boshlaganini, buning natijasida tanasining orqa biqin qismi va ko'krak sohasiga hamda qo'llariga tan jarohati yetkazganini, bundan tashqari B.U. jiyani I.ga "buni uyga olib kirib uramiz" deb uni uyga qarab tortishganida u ularga qarshilik qilganini, shundan so'ng, tuman IIB ga telefon qilganidan so'ng hudud profilaktika inspektori kelib qarzdor B.U. tinchlantirilib olib ketilganini, shundan keyin majburiy ijro harakatlari davom ettirilib, ijro hujjati talabi amalda bajarilganini, hozirda sudlanuvchilar B.U. va I.O.lar qilgan ishidan pushaymon bo'lib undan kechirim so'raganligi sababli uni kechirganligini, unga nisbatan da'vosi yo'qligini bayon qildi.

Jabrlanuvchi I.O. sudda, 2018 yildan buyon Chiroqchi tumani Yo'l qurilish bo'limida ekskavatorchi bo'lib ishlab kelayotganini, 2021 yil 9 dekabr kuni unga boshliq telefon qilib, Chiroqchi tumani Bolsuvar qishlog'iga MIB xodimlari bilan birga borishi kerakligini, bir noqonuniy qurilmani majburiy buzish kerakligini, ijrochilar yo'lda kutib olishlarini aytganini, shundan so'ng 15:30larda o'ziga birlashtirilgan ekskavatorni minib, Chiroqchi tumani Mustaqillik MFY, Bolsuvar qishlog'i tomonga harakatlanib borganini, uni Bolsuvar qishlog'i hududida MIB Chiroqchi tumani bo'limi xodimlari kutib olishganini va Bolsuvar qishlog'ining ichki yo'lidan dala tomonga harakatlanib ketishganini, u ularni orqasidan borganini, ular bir yer maydonining oldida to'xtashganini va unga yer maydoniga qurilgan uy joyini buzish kerakligini, ushbu uy joy noqonuniy qurilganligini, egasi o'z ixtiyori bilan buzib olmaganligini, uy joyini buzish uchun sudning qarori borligini aytishganini, bino ustidagi sheferlarni, eshik derazalarni olib ketishganini, shundan so'ng u ekskavatorni yer maydoniga olib kirib uy joyini bir qismini ag'darganini, shu uy joyini qurgan B. ismli fuqaro kelib, dastlab ijrochi Ma'mur bilan og'zaki tortishganini va ekskavatorning ustiga chiqib, haqorat qilib, qo'llari bilan uni urib, oyoqlari bilan tepib tashlaganini, ijrochi Ma'mur unga bunday qilmasligini, qarshilik ko'rsatmasligini aytishiga qaramasdan B. o'z harakatlarni davom ettirib uni bir necha marta oyog'i bilan turli joylariga tepib tashlab, chiqib ketishini talab qilganini, shundan so'ng ekskavatorni orqa haydaganidan so'ng B. ekskavatoridan tushib, ijrochi Ma'murga tashlanib, uni ham ura boshlaganini, shunda B.ning bir sherigi Ikrom yerdan shiferni olib, sindirib, shifer bo'lagi bilan ijrochi Ma'murni urganini, bir ozdan so'ng profilaktika inspektori kelib, B.ni olib ketganini, shundan so'ng B.ning boshqa qarindoshlari ham kelib, buzishga ruxsat berishganidan keyin binoni buzib tashlaganini sog'lig'i bo'lmaganligi sababli Chiroqchi tumani tibbiyot birlashmasiga murojaat qilgani va shifokor tavsiyasiga ko'ra uy sharoitida davolanib chiqqanligini, hozirda sudlanuvchilar B.U. va I.O.lar qilgan ishidan pushaymon bo'lib undan kechirim so'raganligi sababli ularni kechirganligini, unga nisbatan da'vosi yo'qligini bayon qildi.

Sudlanuvchilar B.U. va I.O.larning sodir qilgan jinoyati, yuqoridagi ko'rsatuvlardan tashqari, bildirgi, jinoyat ishida hodisa joyini ko'zdan kechirish bayonnomasi, hodisa joyi chizmasi va fotosuratlarini, sud-tibbiyot ekspertizasining xulosalari, taqdim qilingan diskni ko'zdan kechirish va taqdim



etilgan disk, ashyoviy dalil deb e'tirof etish to'g'risidagi qaror, yuzlashtirish bayonnomalari hamda boshqa dalillar bilan o'z isbotini topdi.

Sud, dastlabki tergov organi tomonidan sudlanuvchilar B.U. va I.O.larning xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga faol qarshilik ko'rsatib, xizmat vazifasini va fuqaroviy burchini bajarishdan voz kechishga majbur qilganlikda ifodalangan jinoiy harakatlari jinoyat sodir qilgan vaqtda amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi JKning 219-moddasi 2-qismi bilan to'g'ri kvalifikatsiya qilingan bo'lsa-da, biroq JKning 140-moddasi 3-qismi "a" bandi bilan ortiqcha kvalifikatsiya qilingan deb hisoblaydi.

Jinoyat qonunchiligida o'z xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakiliga qanday shaklda bo'lmasin o'zining xizmat vazifasini va o'z fuqaroviy burchini bajarishdan voz kechishga majbur qilish - o'ldirish, sog'liqqa zarar yetkazish, do'pposlash, jabrlanuvchiga jismoniy azob berish yoki irodasiga xilof ravishda uning jismoniy erkinligini cheklashi mumkin bo'lgan boshqa zo'ravon harakatlarni sodir etish niyatining aybdor tomonidan so'zlar yoki turli harakatlar orqali ifodalanadi.

Jinoyat ishida to'plangan va sud muhokamasida aniqlangan holatlarga ko'ra, 2021 yilning 09 dekabr kuni soat 12:00 larda Byuroning Chiroqchi tumani bo'limi davlat ijrochilari M.Xurramov, Sh.Normurodov va M.Raximovlar birgalikda fuqarolik ishlari bo'yicha Chiroqchi tumani sudining 18.08.2020 yildagi ijro varaqasiga asosan da'vogar "Qudratov Sobir Chorshanbiyevich" fermer xo'jaligi foydasiga javobgar U. B. tomonidan noqonuniy qurilgan imoratini majburiy tartibda buzdirish va yer maydonidan foydalanishga to'sqinlik qilmaslik majburiyatini yuklash haqidagi ijro hujjatiga asosan Chiroqchi tumani Mustaqillik MFY, Bolsuvar qishlog'ida joylashgan B.U. tomonidan noqonuniy qurilgan imoratni majburiy tartibda buzdirish uchun yer maydoniga kelishib, shu kuni soat 16:30 larda yer maydonida noqonuniy qurilgan imoratni Chiroqchi tumani yo'llardan foydalanish unitar korxonasidan ajratilgan maxsus texnika vositasi yordamida buzishmoqchi bo'lishganida B.U. va I.O.lar davlat ijrochisi M.Xurramov va fuqaroviy burchini bajarayotgan ekskavatorchi O.Nurmatovlarni haqorat qilib, qo'l oyoqlari bilan urib, tepib tan jarohati yetkazib, davlat ijrochisining xizmat vazifasini bajarishdan va ekskavatorchi O.Nurmatovni fuqaroviy burchini bajarishdan voz kechishga majbur qilganligi aniqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014 yil 23 maydagi "Sud hukmi to'g'risida"gi 7-sonli Qarorining 26-bandida sudlanuvchi tomonidan sodir etilgan bir jinoyat, jinoyat qonunining bir necha moddalari bilan xato tavsiflanganda, yoki bir necha sodir etilgan jinoyatlarini jinoyat qonunining og'irroq jazoni taqozo qiluvchi birgina moddasi bilan tavsiflash o'rniga asossiz ravishda jinoyat qonuni bir moddasining bir necha qismlari bilan tavsiflanganda, sud hukmning tavsif qismida sudlanuvchiga xato qo'yilgan JKning moddasi (moddasi qismi yoki bandi)ni chiqarib tashlash to'g'risida ham tegishli asoslar keltirgan holda ko'rsatib o'tishi yetarli ekani haqida rahbariy tushuntirishlar berilgan.

Binobarin, sud sudlanuvchilar B.U. va I.O.larning xizmat vazifasini bajarib turgan davlat ijrochisini xaqoratlab, urib, do'pposlab, jismoniy zo'rlik ishlatib, xizmat vazifasini bajarishidan voz kechishiga, B.Urozovning fuqaroviy burchini bajariyotgan ekskavatorchi O.Nurmatovni xaqortlab, urib, do'pposlab, jismoniy zo'rlik ishlatib, fuqaroviy burchini bajarishdan voz kechishiga majbur qilganlikdagi jinoiy harakati O'zbekiston Respublikasi JKning 219-moddasi 2-qismi dispozitsiyasi bilan to'liq qamrab olinishligi sababli ularning aybidan



JKning 140-moddasi 3-qismi “a” bandini chiqarishni va ishning shu qismini tugatishni lozim topdi.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 7-moddasida “Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo‘ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta‘sir choralari qo‘llanilishi” ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006 yil 3 fevraldagi “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi 1-sonli Qarorining 1-bandida “Sudlarning e‘tibori jinoyat uchun jazo tayinlashda qonuniylik, insonparvarlik, odillik va javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga qat‘iy amal qilishga qaratilishi lozimligi”, ushbu Qarorning 3-bandida “JKning 8, 54-moddalari mazmuniga ko‘ra jazo adolatli bo‘lishi-har bir holatda individual tayinlanishi, jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga, aybdorning shaxsiga, shuningdek jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarga muvofiq bo‘lishi kerakligi” haqida tushuntirish berilgan.

Sud, sudlanuvchi B.U.ga nisbatan jazo tayinlashda, O‘zbekiston Respublikasi JKning 7,8-moddalaridagi insonparvarlik va odillik prinsiplari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014 yil 23 maydagi “Sud hukmi to‘g‘risida”gi 7-sonli qaroridagi tushuntirishlariga rioya qilgan holda, uning shaxsini, aybiga iqror va pushaymonligini, yetkazilgan zararlar qoplanganligini, jabrlanuvchilarning da‘vosi yo‘qligini JKning 55-moddasiga asosan jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb topib, jinoyatni past niyatlarda sodir ilganligini JKning 56-moddasiga asosan jazoni og‘irlashtiruvchi holat deb topib, Jinoyat kodeksi odillik va insonparvarlik tamoyillariga rioya qilgan holda hamda Oliy sud Plenumining tushuntirishlariga amal qilib, yetkazilgan zararlar qoplanganligini, jabrlanuvchilarning da‘vosi yo‘qligini, sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar deb topib, oilaviy sharoitini va moddiy ahvolini inobatga olib, unga jinoiy harakati kvalifikatsiya qilingan modda sanksiyasida nazarda tutilgan ozodlikni cheklash jazosini tayinlashni, uning qamoqda saqlangan kunining har bir kunini O‘zbekiston Respublikasi JKning 61-moddasiga asosan ozodlikni cheklash jazosining bir kuniga tenglashtirib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 62-moddasiga asosan o‘tash uchun ozodlikni cheklash jazosini qoldirishni, unga nisbatan qo‘llanilgan “Qamoqqa olish” ehtiyot chorasini bekor qilib, darhol sud zalida qamoqdan ozod qilishni lozim topdi.

-sudlanuvchi I.O.ga nisbatan jazo tayinlashda, O‘zbekiston Respublikasi JKning 7,8-moddalaridagi insonparvarlik va odillik prinsiplari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014 yil 23 maydagi “Sud hukmi to‘g‘risida”gi 7-sonli qaroridagi tushuntirishlariga rioya qilgan holda, uning shaxsini, aybiga iqror va pushaymonligini, muqaddam sudlanmaganligini, yetkazilgan zararlar qoplanganligini, jabrlanuvchining da‘vosi yo‘qligini JKning 55-moddasiga asosan jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb topib, jinoyatni past niyatlarda sodir qilganligini JKning 56-moddasiga asosan jazoni og‘irlashtiruvchi holat deb topib, Jinoyat kodeksi odillik va insonparvarlik tamoyillariga rioya qilgan holda hamda Oliy sud Plenumining tushuntirishlariga amal qilib, yetkazilgan zararlar qoplanganligini, jabrlanuvchilarning da‘vosi yo‘qligini, sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar deb topib, oilaviy sharoitini va moddiy ahvolini inobatga olib, unga jinoiy harakati kvalifikatsiya qilingan modda sanksiyasida nazarda tutilgan ozodlikni cheklash jazosini tayinlashni, unga nisbatan qo‘llanilgan ehtiyot chorasi garovni bekor



qilib, garovga qo'yilgan 5.989.104 so'mni garovga qo'yuvchi I.O.ga qaytarishni lozim topdi.

Shuningdek, sud ashyoviy dalillar va yetkazilgan zararlar masalasini muhokama qilib, ashyoviy dalil – davlat ijrochisi M.Xurramov tomonidan hodisa jarayoni tushirilgan video tasvirlar yozilgan bir dona DVD diskni jinoyat ishi bilan birga qo'shib saqlashni;

Jabrlanuvchilar M.Xurramov va I.O.larning sudlanuvchilar B.U. va I.O.larga nisbatan da'vosi yo'qligini inobatga olishni lozim topdi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 454-457, 463, 465-468 va 471-474-moddalariga amal qilib, sud

## HUKM QILDI:

U. B. S. O'zbekiston Respublikasi JKning 219-moddasi 2-qismi bilan aybli deb topilsin.

B.U.ga O'zbekiston Respublikasi JKning 219-moddasi 2-qismi bilan 3 yil 6 oy ozodlikni cheklash jazosi tayinlansin.

B.U.ning qamoqda saqlangan 2 oy 22 kunining har bir kuni O'zbekiston Respublikasi JKning 61-moddasiga asosan ozodlikni cheklash jazosining bir kuniga tenglashtirilsin va O'zbekiston Respublikasi JKning 62-moddasiga asosan tayinlangan ozodlikni cheklash jazosidan chegirilsin va o'tash uchun uzil-kesil 3 yil 3 oy 8 kun ozodlikni cheklash jazosi qoldirilsin va uning sutkaning kech soat 22:00dan ertalab soat 06:00ga qadar yashash joyidan chiqishi cheklansin.

U. B. S.ning zimmasiga:

- nazorat qiluvchi organning roziligisiz yashash joyini o'zgartirmaslik;
- nazorat qiluvchi organning roziligisiz Qashqadaryo viloyat hududidan chetga chiqmaslik;
- ommaviy tadbirlar o'tkazishda ishtirok etmaslik kabi qo'shimcha taqiq (cheklash)lar yuklansin.

Jazoning ijro etilishini nazorat qilish Chiroqchi tuman IIB zimmasiga yuklatilsin va jazo muddati mahkum hisobga olingan kundan boshlab hisoblansin.

B.U.ga nisbatan qo'llanilgan "Qamoqqa olish" ehtiyot chorasi bekor qilinsin va u darhol sud zalida qamoqdan ozod qilinsin.

O. I. D. O'zbekiston Respublikasi JKning 219-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybli topilsin.

I.O.ga O'zbekiston Respublikasi JKning 219-moddasi 2-qismi bilan 3 yil 6 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlansin.

I.O.ga sutkaning kech soat 22:00dan ertalab soat 06:00ga qadar yashash joyidan chiqishi cheklansin.

O. I. D.ning zimmasiga:

- nazorat qiluvchi organning roziligisiz yashash joyini o'zgartirmaslik;
- nazorat qiluvchi organning roziligisiz Qashqadaryo viloyat hududidan chetga chiqmaslik;
- ommaviy tadbirlar o'tkazishda ishtirok etmaslik kabi qo'shimcha taqiq (cheklash)lar yuklansin.

Jazoning ijro etilishini nazorat qilish Chiroqchi tuman IIB zimmasiga yuklatilsin va jazo muddati mahkum hisobga olingan kundan boshlab hisoblansin.



O. I. D.ga nisbatan qo'llanilgan garov ehtiyot chorasi hukm qonuniy kuchga kirgach bekor qilinsin va garovga qo'yilgan 5.989.104 so'm I.O.ga qaytarilsin.

Ashyoviy dalil – davlat ijrochisi M.Xurramov tomonidan hodisa jarayoni tushirilgan video tasvirlar yozilgan bir dona DVD disk jinoyat ishi bilan birga saqlansin.

Jabrlanuvchilar M.Xurramov va I.O.larning sudlanuvchilar B.U. va I.O.larga nisbatan da'vosi yo'qligi inobatga olinsin.

Hukmdan norozi tomonlarga hukm e'lon qilingan kundan, sudlanuvchilar va jabrlanuvchilarga hukm nusxasini olgan kundan boshlab yigirma sutka muddat ichida shu sud orqali Qashqadaryo viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga apellyatsiya tartibida shikoyat berishga, prokuror protest keltirishga haqli ekanligi tushuntirilsin.

**Raislik qiluvchi:**

**O'.Rasulov**

